

**“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA TAZOD SAN’ATINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI”**

*Bo’ronova Gulira’no*

*Farg’ona davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti o’zbek tili*

*yo’nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ulug‘ o‘zbek mutafakkiri Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida qo‘llangan tazod badiiy san’atining leksik-semantik xususiyatlari zamonaviy tilshunoslik paradigmlaridan kelib chiqqan holda tadqiq etilgan. Maqolada tazodning shunchaki adabiy vosita emas, balki tilning boy imkoniyatlarini, xususan, lug‘aviy va kontekstual antonimiyani yuzaga chiqaruvchi kuchli lisoniy hodisa ekanligi dalillangan. Asar tili turkiy va o‘zlashma qatlamlardagi zid ma’noli leksemalar kesimida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, Farhod va Shirin, tazod, leksik-semantika, lug‘aviy antonimiya, kontekstual antonimlar, lingvopoetika, lisoniy zidlik.

**Annotation:** This article examines the lexical-semantic features of the antithesis (tazod) as a stylistic device in the epic Farhod va Shirin by the great Uzbek thinker Alisher Navoiy, within the framework of modern linguistic paradigms. The study argues that antithesis is not merely a literary device, but a powerful linguistic phenomenon that reveals the rich potential of language, particularly in generating both lexical and contextual antonymy. The language of the work is analyzed through oppositional lexemes belonging to both native Turkic and borrowed lexical layers.

**Keywords:** Alisher Navoiy, Farhod va Shirin, antithesis, lexical semantics, lexical antonymy, contextual antonyms, linguopoetics, linguistic opposition

**Аннотация:** В данной статье исследуются лексико-семантические особенности антитезы (тазод) в поэме Farhod va Shirin великого узбекского

мыслителя Alisher Navoiy с позиций современных лингвистических парадигм. В работе обосновывается, что антитеза является не только литературным приёмом, но и мощным лингвистическим явлением, раскрывающим богатые возможности языка, в частности, в формировании лексической и контекстуальной антонимии. Язык произведения анализируется на основе противопоставленных лексем, относящихся как к тюркскому, так и к заимствованному словарному слою.

**Ключевые слова:** Alisher Navoiy, Farhod va Shirin, антитеза, лексическая семантика, лексическая антонимия, контекстуальные антонимы, лингвопоэтика, языковая оппозиция

Alisher Navoiy asarlari tili – o‘zbek adabiy tili semantik boyligining fundamental asosi hisoblanadi. Ulug‘ shoirning "Xamsa" turkumiga kiruvchi "Farhod va Shirin" dostonining g‘oyaviy-badiiy va falsafiy teranligini ta’minlashda lisoniy vositalarning o‘rni beqiyosdir. Mumtoz she’riyatda fikrning ta’sirchanligi va lirik obrazlar dinamikasini shakllantiruvchi yetakchi vositalardan biri tazod (antiteza) san’atidir. An’anaviy adabiyotshunoslik doirasida tazod ko‘p hollarda uslubiy qolip, qarshilantirish yoki she’riy bezak sifatida tadqiq etib kelingan. Biroq bugungi zamonaviy tilshunoslik paradigmalari (xususan, lingvopoetika, kognitiv tilshunoslik va matn semantikasi) badiiy matndagi zidliklarni sof lisoniy sathda o‘rganishni talab etmoqda. Dostondagi tazodlarni o‘rganish – shoirning tildagi tayyor antonimik birliklardan foydalanish darajasi hamda matn ichida yangi qarama-qarshi semantik maydonlar yaratish mahoratini lingvistik tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham "Farhod va Shirin" dostonida qo‘llangan tazodlarni leksik-semantik jihatdan tadqiq etish bugungi o‘zbek tilshunosligida o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mumtoz badiiy san’atlar Atoullloh Husayniyning "Badoye’ us-sanoye’" asaridan boshlab o‘rganib kelingan bo‘lib, u yerda ushbu hodisa mutobaqa, tiboq, tatbiq kabi nomlar bilan izohlangan. Navoiy asarlaridagi tazodlar badiiy tasvir vositasi sifatida I. Haqqulov, A. Rustamov, A. Hojiahmedov kabi adabiyotshunoslar tomonidan tahlilga tortilgan. Biroq doston tilidagi zid ma’noli birliklarning leksik-semantik tabiati, lug‘aviy va

matniy antonimiyaning o'zaro munosabati hamda so'z o'zlashtirish (arabiy-forsiy qatlam) jarayonida lisoniy oppozitsiyalarning namoyon bo'lishi xususiyatlari yaxlit lingvistik tizim holatida tadqiq etilmagan.

Lingvistik nuqtai nazardan yondashilganda, tazod san'ati bevosita tildagi antonimiya hodisasining badiiy nutqdagi eng oliy va murakkab ko'rinishidir. Antonimlar til tizimida (lug'atda) bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tayyor lisoniy birliklar sanalsa, tazod esa ushbu birliklarning konkret matnda ma'lum bir badiiy-estetik vazifani bajarish uchun faollashuvdir. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida qarshilantirish va zidlik hosil qilish orqali baytlar arxitektonikasini mustahkamlaydi. Dostonda tazod san'atini yuzaga keltiruvchi birliklarni leksik-semantik jihatdan quyidagi 3 ta yirik lisoniy paradigmaga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

Lug'aviy (absolyut) antonimlar asosidagi tazodlar: Bunda shoir xalq tilida va muqim lug'atlarda o'zaro zid ma'nosi shakllanib bo'lgan leksik birliklardan foydalanadi (Masalan: tun – kun, visol – hijron, oshkor – nihon).

Kontekstual (matniy/nutqiy) antonimlar asosidagi tazodlar: Bu til tizimida o'zaro mustaqil holda zid ma'no anglatmaydigan, biroq Navoiyning beqiyos so'z qo'llash mahorati bilan aynan shu asar kontekstida qarama-qarshi ma'no kasb etgan tushunchalardir (Masalan: tosh va ko'ngil, kibr timsoli bo'lgan shoh va ishqiy taslimiyat timsoli bo'lgan oshiq).

Semantik transformatsiyaga uchragan lisoniy zidliklar: Zidlikning faqat so'z ma'nosidagina emas, balki fe'lning bo'lishli-bo'lishsizlik shakllari hamda gaplarning sintaktik paralellizm qoliplarida namoyon bo'lishi.

Ushbu ilmiy-nazariy qarashlar va tasniflardan kelib chiqib, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida qo'llangan tazod san'atini bevosita matn tahlili orqali ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Zero, dostonning har bir bayti o'zbek adabiy tilining boy semantik imkoniyatlarini, shoirning so'z tanlash va ularni o'zaro zidlantirish mahoratini ko'rsatuvchi bitmas-tuganmas lisoniy xazinadir.

Quyida doston matnidan saralab olingan baytlar tahlili orqali tazod

san'atining leksik-semantik, morfologik hamda kontekstual xususiyatlarini lisoniy jihatdan ko'rib chiqamiz.

Icharda mo'rdin o'ksuk g'izosi,

Topib qut onchakim, arslon bolosi.

Tazod hosil qilgan birliklar: Mo'r (chumoli) Arslon (sher).

Baytda tazod san'ati ot turkumiga mansub bo'lgan ikki mustaqil leksema ishtirokida hosil qilingan. Mo'r hamda arslon so'zlari forsiy va turkiy qatlamga mansub bo'lib, ular umumiy lug'at tizimida (leksikologiyada) o'zaro absolyut antonim hisoblanmaydi. Biroq Navoiy matn ichida ularning semantik strukturasi (ma'no tarkibiga) kuchli badiiy va obrazli yuk yuklagan. Birinchi misradagi mo'r (chumoli) leksemasi matnda kichiklik, kamsitilish va ozlik semalarini (mo'rdin o'ksuk g'izosi — ovqati chumolining ovqatidan ham kamroq) reallashtirgan. Ikkinchi misradagi arslon (sher) leksemasi esa qudrat, ulug'vorlik va to'kislik ma'nolarini (topib qut onchakim, arslon bolosi — quvvati, to'qligi esa sher bolasiday) anglatgan. Tilshunoslikda lug'aviy antonim bo'lmagan, faqat ma'lum bir matn (kontekst) doirasidagina qarama-qarshilik hosil qiladigan bunday hodisalar kontekstual antonimlar deb ataladi. Navoiy Farhodning go'daklik davridagi jismoniy kamtarona holati bilan uning ruhiyatidagi haybatli quvvat o'rtasidagi zidlikni ko'rsatishda aynan shu kontekstual tazod usulidan mahorat bilan foydalangan.

Qadig'a g'am yuki deb roz har dam

Ki, qilg'um bu «alif»ni «dol»dek xam.

Tazod hosil qilgan birliklar: Alif (arab alifbosining birinchi harfi) Dol (arab alifbosining sakkizinchi harfi).

Baytda qo'llangan tazod arabiy o'zlashma qatlamga mansub bo'lgan ikki xos ot (alif va dol) vositasida yuzaga kelgan. Bu ikki leksema odatdagi leksikologik lug'atlarda o'zaro absolyut antonim hisoblanmaydi. Biroq Navoiy bu yerda she'riyat va tilshunoslik kesishgan nuqtadagi noyob hodisa — grafik-semantik zidlanish usulidan foydalangan. Navoiy davri adabiy tilida arab yozuvidagi alif( ) harfi o'zining chizig'iga ko'ra to'g'rilik, tiklik, yoshlik va g'urur

semalarini (ma'no qirralarini) ifodalovchi lisoniy kod bo'lib xizmat qilgan. Dol (د) harfi esa o'zining egilgan ko'rinishiga ko'ra bukilganlik, egiklik va qarilik semalarini reallashtirgan. Shoir "g'am yuki" tufayli inson qaddi (alifdek tik holatdan) doldek bukilib qolishini tasvirlash orqali bu ikki harf nomini bir-biriga qarama-qarshi qo'ygan. Tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, bu hodisa lug'aviy antonimiya emas, balki bayt matni ichidagina kuchga kiruvchi kontekstual-grafik tazod hisoblanadi. Navoiy harflarning tashqi shakliy ma'nolaridan lisoniy zidlik hosil qilishda yuksak mahorat ko'rsatgan.

Kim etsa darddin oz-oz rivoyat,

Qilib ul dard anga ko'r-ko'p siroyat.

Tazod hosil qilgan birliklar: Oz-oz

Ko'r-ko'p (juda ko'p).

Mazkur baytda tazod hodisasi sof lug'aviy (leksik) antonimlar vositasida shakllangan. Oz va ko'p leksemalari o'zbek tili lug'at fondida tayyor zid ma'noli, miqdor bildiruvchi ravishlar sanaladi. Alisher Navoiy bu yerda oddiy antonimlardan foydalanib qolmay, ularning ta'sirchanlik darajasini oshirish maqsadida tilshunoslikning reduplikatsiya (so'zni juftlab takrorlash) hamda fonetik kuchaytirish usullaridan foydalangan. Birinchi misradagi oz-oz juftligi dardning minimal darajada bayon qilinishini anglatrsa, ikkinchi misradagi ko'r-ko'p (ko'p so'zining kuchaytirma darajasi) esa o'sha dardning o'ta yuqori darajada kuchayib, vujudga yoki ruhiyatga chuqur singib ketishini (siroyat qilishini) bildiradi. Ushbu baytda qo'llangan tazod tilshunoslikda kvantitativ (miqdoriy) oppozitsiya deb ataladi. Navoiy ozgina dard aytilsa ham, uning ta'siri va asorati cheksiz bo'lishini ko'rsatishda miqdoriy zidlikni juda aniq mantiqiy qolipda ifodalagan. Bu lisoniy struktura doston tilidagi lug'aviy antonimlarning badiiy nutqda faollashuviga yorqin misoldir.

Tazod hosil qilgan birliklar: Oz-oz

Ko'r-ko'p (juda ko'p).

Ushbu baytda tazod hodisasi sof lug'aviy (leksik) antonimlar vositasida shakllangan. Oz va ko'p leksemalari o'zbek tili lug'at fondida tayyor zid

ma'noli, miqdor bildiruvchi ravishlar sanaladi. Alisher Navoiy bu yerda oddiy antonimlardan foydalanib qolmay, ularning ta'sirchanlik darajasini oshirish maqsadida tilshunoslikning reduplikatsiya (so'zni juftlab takrorlash) hamda fonetik kuchaytirish usullaridan foydalangan. Birinchi misradagi oz-oz juftligi dardning minimal darajada bayon qilinishini anglatrsa, ikkinchi misradagi ko'r-ko'p (ko'p so'zining kuchaytirma darajasi) esa o'sha dardning o'ta yuqori darajada kuchayib, vujudga yoki ruhiyatga chuqur singib ketishini (siroyat qilishini) bildiradi. Ushbu baytda qo'llangan tazod tilshunoslikda kvantitativ (miqdoriy) oppozitsiya deb ataladi. Navoiy ozgina dard aytilsa ham, uning ta'siri va asorati cheksiz bo'lishini ko'rsatishda miqdoriy zidlikni juda aniq mantiqiy qolipda ifodalagan. Bu lisoniy struktura doston tilidagi lug'aviy antonimlarning badiiy nutqda faollashuviga yorqin misoldir.

Bo'lub shahlar eshigining gadoyi,

Va lekin ul gadolar xoki royi.

Tazod hosil qilgan birliklar: Shoh Gado.

Mazkur baytda tazod arabiy va forsiy o'zlashma qatlamga mansub bo'lgan otlar vositasida yuzaga kelgan. Shoh (hukmdor) va gado (tilanchi) leksemalari ham lisoniy, ham ijtimoiy jihatdan tub qarama-qarshilikka ega bo'lgan lug'aviy antonimlardir. Navoiy bu yerda an'anaviy lug'aviy ma'nodan chekingan holda semantik transformatsiya (ma'no ko'chishi) yasaydi: shohlarni moddiy qudrat egalari sifatida pastga qo'yadi, gado (bu yerda darvesh, oshiq va haqiqiy ma'rifat ahli) obrazini esa "xoki royi" (yo'l tuprog'i, ya'ni ulkan kamtarlik va azizlik timsoli) deya yuksaltiradi. Lisoniy zidlik ijtimoiy statuslar oppozitsiyasi orqali matnning falsafiy yukini oshirishga va haqiqiy boylik moddiyatda emas, balki ma'naviyatda ekanligini ko'rsatishga xizmat qilgan. Tilshunoslikda bunday hodisa matn ichida so'zlarga yangi konnotativ (hissiy-bo'yoqli) ma'no yuklash sanaladi.

Azaldin behad oshib ibtidosi,

Abaddin asru toshib intihosi.

Tazod hosil qilgan birliklar: Azal Abad; Ibtido Intiho.

Ushbu baytda tazod hodisasi arabiy o'zlashma qatlamga mansub bo'lgan jami to'rtta ot turkumidagi leksemalardan tashkil topgan. Alisher Navoiy bu baytda bir yo'la ikki juft absolyut lug'aviy antonimlardan foydalanib, doston tilida kam uchraydigan qo'shaloq tazod (parallel antiteza) hosil qilgan. Baytdagi birinchi antonimik juftlik: Azal (boshlanishi bo'lmagan o'tmish, azaliylik) hamda Abad (oxiri bo'lmagan kelajak, abadiylik) so'zlari hisoblanadi. Tilshunoslikda bular vaqt o'lchovini bildiruvchi temporal antonimlar sanaladi. Ikkinchi juftlik esa: Ibtido (boshlanish) va intiho (yakun, tugallanish) leksemalaridir. Ular harakat yoki jarayonning ikki chekka nuqtasini bildiruvchi leksik antonimlar hisoblanadi. Navoiy dostonning muqaddima qismida ilohiy qudrat va koinotning cheksizlik sifatlarini tasvirlash uchun ushbu lisoniy oppozitsiyalardan mahorat bilan foydalangan. Baytda mukammal sintaktik parallelizm saqlangan: har ikki misra bir xil grammatik qolipda (ot + chiqish kelishigi + ravish + fe'l + egalik qo'shimchali ot) qurilgan. Bu holat tazodning nafaqat so'z ma'nosida, balki butun boshli gap qurilishida (sintaktik antiteza) ham namoyon bo'lishiga yorqin misoldir.

Surudikim ulusni xurram aylab,

Aning xurramlig'in dardu g'am aylab.

Tazod hosil qilgan birliklar: Xurram (shod) Dardu g'am.

Mazkur baytda tazod hodisasi bir tomondan forscha o'zlashma sifat (xurram), ikkinchi tomondan esa arabcha abstrakt otlar (dard, g'am) va ular hosil qilgan juft so'z ziddiyatiga tayanadi. Tilshunoslikda so'zlar o'zlarining lug'aviy ma'nosidan tashqari hissiy-estetik bo'yoq (konnotatsiya) ham tashiydi. Birinchi misradagi xurram leksemasi ijobiy emotsional bo'yoqqa ega bo'lib, inson va jamiyat ruhiyatidagi shodlik holatini ifodalaydi. Ikkinchi misradagi dard va g'am leksemalari esa salbiy emotsional bo'yoq tashuvchilaridir. Navoiy baytda kuchli sintaktik parallelizm (gaplarning bir xil qurilishi) hamda takror (har ikki misra so'ngida "aylab" ravishdoshi) usulidan foydalangan holda bir xil harakatning ikki xil qarama-qarshi hissiy natijasini ko'rsatadi. Ya'ni biron bir kuy (surud) butun xalqni (ulus) xursand qilgani holda, aynan o'sha kuyning o'zi doston

qahramonining (Farhodning) o'sha xurramligini dardga aylantirishi mumkinligi lisoniy zidlik orqali keskin ochib berilgan. Bu holat lug'aviy antonimlarning badiiy matnda faollashuviga yorqin misoldir.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida qo'llangan tazod san'atining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida quyidagi muhim ilmiy xulosalarga kelindi:

Lug'aviy va kontekstual antonimiya uyg'unlashgan. Navoiy doston matnida faqatgina til tizimida mavjud bo'lgan tayyor (absolyut) leksik antonimlar bilan cheklanib qolmagan. Shoir ko'p o'rinlarda lug'aviy jihatdan zid bo'lmagan tushunchalarni konkret matn (kontekst) doirasida o'zaro qarama-qarshi qo'yish orqali yangi mazmunga ega bo'lgan kontekstual antonimlar tizimini yaratgan. Mo'r (chumoli) hamda arslon (sher) misollari bunga yorqin dalildir. Lisoniy qatlamlarning faol ishtirok etgan. Tazod yaratishda shoir turkiy qatlam bilan bir qatorda arabiy va forsiy o'zlashmalardan ham mahorat bilan foydalangan. Ayniqsa, shoh va gado, azal va abad kabi o'zlashma leksemalar dostonning falsafiy salmog'ini oshirishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qilgan. Dostonda semantik transformatsiyalar va yangi konnotatsiyalar mavjud. Navoiy tazod san'atidan shunchaki she'riy bezak sifatida emas, balki so'zlarning an'anaviy ma'nosini o'zgartirib, ularga yangi hissiy-estetik bo'yoq (konnotatsiya) yuklash maqsadida foydalangan. Masalan, shoh va gado leksemalari orqali ijtimoiy statuslar oppozitsiyasini yaratib, moddiy va ma'naviy olam o'rtasidagi keskin ziddiyatni lingvistik ifodalab bergan. Dostonda harflarning tashqi shakliy ko'rinishlariga asoslangan (masalan, alif va dol) tazodlarning qo'llanishi Navoiyning nafaqat so'z ma'nolari, balki tilning grafik belgilari ustida ham mukammal lisoniy tajribalar o'tkazganini isbotlaydi.

Umuman olganda, "Farhod va Shirin" dostonidagi tazodlar tilshunoslikning leksikologiya, semantika hamda lingvopoetika qonuniyatlari qanchalik yuksak cho'qqiga chiqqanini ko'rsatuvchi bitmas-tuganmas materialdir. Shoirning bu kabi lisoniy oppozitsiyalardan foydalanish mahorati o'zbek adabiy tilining semantik quvvati va ekspressivligini tushunishda g'oyat muhim manba

hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 8-tom. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 jildlik (Tuzuvchilar: E. Fozilov va b.). – Toshkent: Fan, 1983-1985
3. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. 1-kitob. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
6. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik (E. Begmatov tahriri ostida). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.